

**Facebook tarmogida e'lon qilingan "Prezident ta'lim muassasalari agentligi masullari ustidan shikoyatlar kelishi davom etmoqda." nomli murojaatga munosabat.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-son Farmonining 2-bandiga ko'ra, Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimida yangi tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablarga rahbar va pedagog kadrlarni ishga qabul qilish uch bosqichli tanlov (saralash, test, suhbat) asosida tashkil etildi.

Mazkur vazifalarning ijrosi yuzasidan Prezident ta'lim muassasalari agentligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan 2022-yil 25-aprelda 42, 10-xk, 44-son qo'shma qaror qabul qilinib, pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish amalga oshirildi.

Qo'shma qarorga asosan apellatsiya komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, shu kunga qadar natijalardan norozi bo'lgan talabgorlarning shikoyatlari murojaat@piima.uz elektron pochta orqali qabul qilinib, o'rganib chiqilmoqda.

Shu munosabat bilan, tanlovda ishtirok etgan va natijalardan norozi bo'lgan talabgorlarni yuqoridagi elektron pochta orqali murojaat qilishlarini so'rab qolamiz.

Shuningdek, ayrim ijtimoiy tarmoqlar faollari va ba'zi shaxslar tomonidan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, yolg'on va uydirma fikrlar bildirib o'tilmoqda, ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40-moddasida, shuningdek, nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali tuhmat qilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139-moddasida javobgarliklar nazarda tutilgan.